



*Gulnozaxon MIRZAYEVA,*  
*Andijon davlat universiteti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: aasadbek5577@gmail.com ORCID: 0009-0005-7659-1913*

*Professor Sh.Shokirov taqrizi asosida*

### SYMMETRIC AND ASYMMETRIC STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH THE SEMANTICS OF “WEALTH-BOYLIK” IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article is devoted to a comparative study of phraseological units with the semantics of “wealth-boylik” in the English and Uzbek languages. The study analyses how the concept of wealth is expressed in various linguistic units, as well as its linguacultural and figurative features. The analysis revealed symmetrical aspects of phraseological units - semantic content, metaphorical imagery, and functional similarities and asymmetrical aspects - differences related to national mentality, cultural values, and social context. The results of the article will be useful for a comparative study of the concept of wealth in English and Uzbek phraseology, as well as for translation and linguacultural studies.

**Keywords:** phraseological unit, semantics of “wealth-boylik”, symmetry, asymmetry, comparative analysis, linguocultural studies, semantic structure.

### СИММЕТРИЧНОЕ И АСИММЕТРИЧНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СЕМАНТИКИ СЛОВА «WEALTH-BOYLIK» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Данная статья посвящена сравнительному исследованию фразеологических единиц с семантикой «wealth-boylik» в английском и узбекском языках. В исследовании рассматривается, как понятие богатства выражается в различных языковых единицах, его лингвокультурные и образные особенности. По результатам анализа выявлены симметричные аспекты фразеологических единиц - семантическое содержание, метафорическая образность и функциональное сходство, и асимметричные аспекты - различия, связанные с национальным менталитетом, культурными ценностями и социальным контекстом. Результаты статьи будут полезны для сравнительного исследования понятия богатства в английской и узбекской фразеологии, а также для переводческих и лингвокультурных исследований.

**Ключевые слова:** фразеологическая единица, семантика «wealth-boylik», симметрия, асимметрия, сравнительный анализ, лингвокультурные исследования, семантическая структура.

### INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “WEALTH-BOYLIK” SEMANTIKASIGA EGA FRAZEOLIGIK BIRLIKLARNING SIMMETRIK VA ASIMMETRIK TADQIQI

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida “wealth-boylik” semantikasiga ega frazeologik birliklarning qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda boylik tushunchasi turli til birliklarida qanday ifodalanishi, uning lingvokulturologik va obrazli xususiyatlari o‘rganiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra, frazeologik birliklarning simmetrik jihatlari - semantik mazmun, metaforik obrazlilik va funksional o‘xshashliklar hamda asimmetrik jihatlari - milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq farqlar aniqlanadi. Maqola natijalari ingliz va o‘zbek frazeologiyalaridagi boylik konseptini qiyosiy o‘rganish, shuningdek, tarjima va lingvokulturologik tadqiqotlar uchun foydali bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologik birlik, “wealth-boylik” semantikasi, simmetriya, asimmetriya, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, semantik struktura.

**Kirish.** Frazeologik birliklarning keng tarqalgan ma‘nolari uchta asosiy xususiyatni o‘z ichiga oladi. Birinchisi so‘z bo‘lmagan, ikkinchisi komponentlarning turg‘un tarkibi va uchinchisi idiomatik. O‘z navbatida frazemalar, birinchidan, ma‘noni qayta ko‘rib chiqish, ikkinchidan, uning noaniqligi, tarkibiy qismlarning qiymatlaridan chiqarilmasligi bilan tavsiflanadi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tadqiqot jarayonida biz “boylik va kambag‘allik” leksemasiga oid frazeologik birliklarni simmetrik va asimmetrik ma‘nolarini tahlil qilishda ingliz tilida Kunin, Litvinov, Lubenskaya, Longman Idioms, Modestov, Raydaug, Uitting, Myuller, Kuzmin, Raydaug, Uitting, Bukovskaya, Valseva, “Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar, Anglo-russkiy/russko-angliyskiy tolkoviy slovar, Slovar upotrebiteľnix angliyskix poslovits, Slovar sovremennix angliyskix idiom”, o‘zbek tilida: Alisher Navoiy, Shayh Muxammad Sodiq Muxammad Yusuf, Xayotxon Suvonxonova, To‘ra Mirzayev, Ali Azim Ziyovuddin, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, E.Siddiqov, O.Madaliyev, A.Raximovlarning “Inglizcha-

o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha idiomalar lug‘ati”, “Qanotli so‘zlar”, O‘zbek xalq maqollari, Xalq og‘zaki poetikasi kitoblaridagi “boylik va kambag‘allik” semantikasiga oid frazeologik birliklardan foydalandik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Frazeologik tushunchalar timsolining muhim xususiyati mavjud bo‘lib, agar tushunchaning lug‘at tarkibiga kelsak, simmetrik ma‘no gap bo‘laklarining kategorik ma‘nosi bilan aslida to‘g‘ri keladi. Quyidagi xarakterli simmetrik ma‘noga ega frazeologik birliklarni biz minglab gapirishimiz mumkin, oson pul topmoq, baxtli yashash, pichog‘i yog‘ ustida, oltinda cho‘milmoq, anqoning urug‘i, tovuqlar tilla tuxum qo‘ymaydi kabi turli darajadagi boylik xususiyatlariga ega deb tavsiflaymiz.

Asimmetrik xarakterdagi frazeologik birliklarga quyidagilar kiradi: oltin tog‘lar, oltin kon, oltin buzoq, oltin tuxum qo‘yuvchi tovuq, kosa to‘la oltin, oltin yoshlik, sariq shayton. Ta‘kidlash joizki, asimmetrik ma‘nodagi frazeologik birliklar tarkibida eskirgan frazeologik birliklar ko‘p bo‘lib, xususan, turli

nomlanadigan banknotlarning nomlari: tilla zayom, sariq qog'oz, yashil qog'oz, qizil chipta, kamalak qog'oz va x.k.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek tilidagi "boylik" tushunchasiga oid frazeologik birliklarni simmetrik ma'nolarning miqdoriy bog'liqligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqaylik. Tahlil qilinayotgan simmetrik va asimmetrik ma'nodagi frazeologik birliklarda taxminan bir xil nisbat mavjud bo'lib, bular indikativ va obyektiv xususiyatga egadir. Har bir guruhning taxminan 40% asimmetrik xarakterga ega bo'lsa, yarmidan ko'pi simmetrik xarakterga ega bo'lgan frazeologik birliklarni tashkil etadi. Shunday simmetrik va asimmetrik ma'nolarning teng ulushlariga qaramay, atributning gaplardagi birinchi ma'nosi ustunlik qiladi. Chunki bu eng dolzarb simmetrik ma'nodir. Bu boradaga tushunchalarning frazeologizmi "boylik" va uning ma'nosini ifodalovchi bir nacha leksemalar bilan bir xil tendensiyani ko'rsatadi.

O'zbek tilida boylik konseptiga oid simmetrik ma'nolarni aktualashtiruvchi asosiy ma'nolarni tahlilga tortamiz.

Boylik predmeti: pul (tangalar), oltin; farovonlik, boylik, pulning kuchi, shohona hayot.

Boylik belgisi: katta pul, moddiy qadriyatlar bilan tavsiflanadi, behisobligi bilan ajralib turadigan boylik, hashamatda yashash.

Boylikning ikkinchi asimmetrik mazmunini ifodalovchi so'zlar:

Boylik jarayoni: kimnidir boyitish; boyib ketish; boshqa birovdan foyda olish (sutxo'rlik), iqtisodiy ahvolini yaxshilash, pul topish, pul tejash, pul yig'ish.

Shuningdek, o'zbek tilidagi "boylik" tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan asimmetrik ma'nodagi frazeologik birliklarni ko'rib chiqamiz. "Boylik"ni asimmetrik ma'nolarini ifodalovchi frazeologik birliklarni quyidagi guruhlariga bo'lib chiqdik:

1. Boylik shaxsni bildiradi, u antroposentrik, insonga qaratilgan xususiyatdir. Bu turdagi frazeologik konsepsiya o'zining simmetrik ma'nodagi frazeologik birliklaridan farq qiladi. Asimmetrik ma'nodagi frazeologik birliklar sezilarli darajada kam bo'lib, u simmetrik ma'nolari bo'lmagan jihatidir. Asimmetrik xarakterdagi frazeologik birliklar qatoriga oson pul topmoq, pul shohni kuchaytiradi, odamning sodiq yo'ldoshi kabilardir. Asimmetrik ma'nodagi frazeologik birliklarning antropik zaiflashganligi va boshqa salbiy ma'nolarni ifodalashi sababli uning qaysi kategoriyada ekanligini bilish mumkin. Simmetrik ma'nosi boylik bo'lgan frazeologik birliklarda, bir qarashda, shaxsdan uzoqdagi shaxs, albatta, subyekt va obyekt sifatida mavjud bo'ladi. Bunday hollarda - valentlik yoki haqiqiy ma'nosi aniq antroponik yo'naltirilgan komponentlarni o'z ichiga oladi. Masalan: oltin tubi, bitmas-tuganmas daromad, erkin hayot, xavfsiz hayot kabi.

2. Boylik - bu pul. Pulning me'yor, boylik kabi simmetrik ramzi sifatidagi rolini bir qator frazeologik birliklarda kuzatish mumkin: to'xtovsiz harakatda bo'lish, pulni supirib olmoq, pulning boradigan joyi yo'q, son-sanoqsiz juda ko'p pul.

3. Boylik oltindir. Asimmetrik ramzi sifatida frazeologik birliklarda: sariq shayton, oltin tog'lar, oltin yoshlik, oltin koni, oltin (pul) xalta, oltin buzoq.

4. Boylik - bu mo'llik. Boylik deganda pulga, oltinga, moddiy qadriyatlarga simmetrik va asimmetrik munosabatda egalik qilish, bularning barchasiga katta miqdorda egalik qilish oson emasligi tushuniladi: pulni supirib olish, puli oshib-toshib ketish, son-sanoqsiz pul, aqldan ozish, baquvvat (tor) hamyon v.k.

5. Boylikka - osonlik bilan erishish ya'ni asimmetrik parametriya: xarom pul, soxta pul. Simmetrik parametriyada frazeologik birliklarga o'z mehnati bilan topilgan, shuningdek, unga yaqin bo'lgan pul - farovonlik, halol, mashaqqatli mehnat bilan topilgan pul, halol pul topish kabi frazeologik birliklarni ifodalaydi.

O'zbek tilida frazeologik birliklar, shuningdek, pul boylikning muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlashga imkon beradi: millionlarni kechib yurish, taka bo'lsin sut bersin, katta pul, qattiq tanga, soxta pul, pulni bexisob sarflash, pulni xavoga sovurish (isrof qilish).

Tahlillardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, frazeologik birliklardan (160 ta birlikma) asosiy simmetrik ma'noga ega birliklar bo'lib, - taxminan 60%ni tashkil etishini guvohi bo'ldik. Ushbu frazeologik birliklardan asimmetrik xususiyatga ega bo'lgan - 20% gina tashkil etishini kuzatdik. Shuningdek, o'rganishlar jarayonida - 12% disimmetrik ma'noga ega frazeologik birliklarni ham tahlilga tortdik. Bir qator frazeologik birliklar sinkretik xususiyatga ega ekanligini o'rgandik.

Ingliz tilida "rich" konseptining simmetrik va asimmetrik ma'nolarini ko'rib chiqamiz. Bunga asosiy leksema sifatida "rich" so'zini lug'atlar asosida quyidagi modellarini ishlab chiqdik:

Rich + V/ boy+fe'l

Rich in smth/ biror narsada boy

link-verb of becoming + rich/ bog'lovchi fe'l become+boy

Birinchi modelda frazeologik birlikma komponentlarini quyidagi umumlashtirilgan ma'nolarga ajratganmiz: shaxs (man, person, banker); insonlarga xizmat qiluvchi (clothes, jewels, furniture, gift); oziq-ovqat (fruit cake, milk diet, Christmas cake, wine); tovushlar, ranglar badiiy ijod maxsullari (colours of begonias, tones, voice of the baritone); davlatlar bilan bog'liq bo'lgan birliklar (city, country); jamoalar (family, farm); kolleksiyalar (library, collection); yer - tuproq (land, soil, fish); til, nutq, fikr (words, language, theme, suggestion); xosildorlik (crop); sarguzasht (incident, scene, joke).

Ikkinchi modelda leksemalarning quyidagicha birikishi natijasida xosil bo'ladi: tabiiy resurslar (rich in minerals, woods); masalan: The mackerel fish is rich in oil. An art gallery is rich in paintings by the Dutch masters.

Uchinchi modelda quyidagi fe'llarga bog'lanish orqali kelishi mumkin. Bunda boylik so'zining ma'nosi ortishi, natijada undan asimmetrik mazmunda foydalanishga olib kelishi ko'rsatilgan: to become (to grow, to get) rich.

Shuningdek, yana bir birikmaga e'tibor beraylik. "That's rich!" tarkibida "rich" leksemasi ma'lum darajada asimmetrik enantiosemiya (qarama-qarshi ma'no)ni ro'yobga chiqaradi: "They've made John the captain" - "That's rich! Even I can play football better than him!" (Jonni kamanda kapitani qilib tayinlashdi. - Bunaqa gap bo'ladimi! Hatto men ham undan ko'ra yaxshi futbol o'ynay olaman!).

Ilmiy tadqiqot ishimizni o'rganish jarayonida ingliz tilida "riches" leksemasi simmetrik va asimmetrik munosabatdagi frazeologik birlikma sifatida yana quyidagi modellarda ifodalanishi ma'lum bo'ldi:

adj + riches, bunda sifat so'z turkumi boylikning mavjudlikga (spiritual) ishora qiladi yoki miqdor jihatdan simmetrik tavsiflaydi (vast);

riches of N, bunda ot so'z turkumiga oid so'z boylikning joylashish joyini bildiradi (riches of the earth (of the soil) - yer osti boyliklari);

to have + riches - birikmasi "boy bo'lmoq, katta boylik egasi" degan tarjimada keladi (so'zma-so'z - boylikka ega bo'lmoq). Ushbu birikmada kelgan gaplarni tahlil qilinganda ularning aksariyat mazmuni asimmetrik ma'noda kelganligini guvohi bo'ldik. Birikmaga oid gaplarni tahlilimiz davomida ko'rishimiz mumkin.

Ingliz tilidagi "boylik" tushunchasining frazeologik birliklarda keltirilgan simmetrik va asimmetrik ma'nolariga nisbatan quyidagi manzarani beradi: 26% - indikativ belgi, 34% - mavzu xarakteri, 27% - protsessual xarakter va 4% - ikkilamchi belgi. Biz o'zbek tilida "boylik" tushunchasi haqidagi shunga o'xshash ma'lumotlar bilan qiyoslanganda buni boshqacha tarzda ko'ramiz. O'zbek tilidagi frazeologik birliklar tahlil qilinganda, tegishli ingliz tilida xarakterli va mavzu xarakteridagi birliklarning taxminan teng nisbati mavjud. Shu bilan birga, ingliz tilidagi frazeologik birliklarda, shuningdek, o'zbek tilida bir qator frazeologik birliklar mavjud bo'lib ularning simmetrik ma'nolarini qiyoslaganimizda, bir-biriga qorishiq xolatda bo'lishini guvohi bo'ldik: masalan: be in the black -daromadli biznes yuritish, daromad olish, make a killing -birdan boyib ketish, make one's Jack -ko'p pul topish, boyib ketish, gather to store -boylik orttirish, boyib ketish, strike a bonanza - tezda boyib ketish, oltin koniga

hujum qilish (protsessual va indikativ kombinatsiya qiymatlari). Izomorfik xususiyat oz sonli qo'shma gap shakllarida ham ko'rinadi.

Ingliz tilidagi "boylik" leksemasiga oid frazeologik birliklarning asimmetrik ma'nolarining yuqoridagi tavsifi o'zbek tilidagi "kambag'allik" leksemasiga oid frazeologik birliklarning tavsifi bilan uyg'un ekanligini tasdiqlaydi. Lekin frazeologik birliklarning simmetrik va asimmetrik ma'nolari leksik koordinat tizimiga to'g'ri kelmaydi va lug'atni ifodalashda qo'llaniladigan idiomalar semantikasining adekvat tavsifi uchun metatildan kam foydalaniladi. Shu bilan birga, frazeologik birliklarni simmetrik va asimmetrik xususiyatlari o'zlarining ichki ma'nolari, motivatsiya va ma'noni qayta ishlab chiqish, ko'p miqdordagi semantik qirralar bilan ifodalaydi.

Bunda tushunchalarning simmetrik va asimmetrik xususiyati amalga oshirilishida frazeologizmlarning bir necha ma'nolariga e'tibor qaratishimiz lozim. Demak, ingliz tilida: a money bag, a fat cat, a coinycove kabi so'zlarga juda o'xshash ma'noga ega - boy odam. Biroq, birinchi simmetrik ma'no "pul sandiq" ichki shakliga ega (o'zbek tilidagi frazeologik birlik bilan qiyoslanganda bir xil ko'rinish). Ikkinchi frazeologik birlikning simmetrik ma'nosi "katta boy" ma'nosida kelsa, ikkinchi ma'nosi ya'ni asimmetrik "qorindor boy" - degan ma'noni ifodalaydi. Bundan tashqari, Amerika maxalliy jargonidagi bu birikma boylar va zadagonlarga tegishlidir. Uchinchi frazeologik birikma (so'zmaso'z "tilla odam") ingliz tilining Avstraliya dialektida ishlaydi va asimmetrik "karanda" stilistik ma'nosiga ega.

Shuningdek, ingliz tilida "boylik" tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan simmetrik va asimmetrik ma'nolarni ko'rib chiqamiz:

1. Boylik insonga xos xususiyatdir. Ingliz frazeologik birliklari ma'nosida biz o'rganilayotgan tushunchani o'zida mujassam etganligini tahlil qildik, 150 dan ortiq birlikdan iborat bo'lib, antropotsentrik bo'lmagan frazeologik birliklar mavjud bo'lmadi. Bu jihatdan o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar simmetrik ma'noda ekanligini ko'rsatadi.

2. Boylik - bu pul korrelyatsiyasining xususiyati sifatida tahlil qilgan tushunchada "pul" uning bir qismi ekanligini ta'kidlaymiz. Quyidagi frazeologik birliklar sifatida xizmat qiladi: heavy money (sugar, dough, Jack) - pul xususidagi shevalarda; the Almighty Dollar, be in the money, be made of money, chief money, coin (mint) money, folding money, have money to burn, lovely money, make money, marry money, spin money, roll in money, money bag.

3. Boylik - bu oltin (oltin tanga, xar xil taqinchoqlar kabi). Oltinning ramziy muomulasini quyidagi frazeologik birliklardan olish mumkin: strike gold - boyib ketmoq; the goose that laid (lays) the golden eggs, gold mine - oltinning tubi, oltin kon, strike a bonanza - tez boyib ketmoq, oltin kon topmoq.

Boylik timsollari - pul va oltinning izofunksionalligi, shuningdek, "gold" va "money" tarkibiy qismlari bir xil mint gold (money) - pul topish, boyib ketish uchun almashtirilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

4. Boylik - bu oziq-ovqatni ifodalaydi: have one's bread buttered for life, have one's bread buttered for both sides, be in chips, live (be) in clover, reachas cream, good sandgear, in the

gravy, in stock, a silk stocking, the gravy train, ways and means, well in goods. Ingliz tili frazeologik birliklarida taomlarga oid frazeologik birliklar tarkibiy qismlari sifatida ancha faolroq ifodalanadi: fat (yog', yog'li), cream (qaymoq), chips (qovurilgan kartoshka), clover (klever), gravy (qayla), bread (non), butter (sariyog'), jam (djem) va boshqalar.

5. Boylik - bu farovon hayot: be better of - boy bo'lmoq, easy circumstances - ta'minlangan, farovonlik, comfortably off - yaxshi daromad oluvchi, boy, some good - boyib ketmoq, live like lord (king, prince) - baxtli yashamoq, king's ransom - katta miqdordagi pul, well and warm - boylikda, farovonlikda, in a good way - ta'minlangan, yaxshi yashamoq.

6. Boylik - bu kutilmaganda qo'lga kiritish mumkin bo'lgan baxt: strike a bonanza, shake the pagoda-tree, coinit (in), cracka tidy crust, get among it, make a killing, coin (mint) money, spin money, strike a rich pocket.

7. Boylik - bu turli yo'llar bilan topish mumkin: rob the spittle - noqonuniy yo'llar bilan boyib ketmoq, run up from a shoestring - oz-ozdan boshlab boyib ketish, gather to store - boylik to'plash, push one's fortune - ahvolini yaxshilashga harakat qilish, boyroq bo'lish, fly a kite - qalbaki xayoliy hisob-kitob ostida pul olish, insofsiz pul ishlash, spin money - tez pul ishlash (aldov operatsiyalar orqali), feed at public trough - yuqori oyliklik lavozim, aloxida mexnat talab qilmaydigan; marry money, marry a fortune - pulga ruju qo'yish, qulaylik bilan turmush qurish, make money - boy bo'lib ketmoq.

8. Boylik - bu biror bir boy oilada tug'ilmoq: curled darlings - "tanti" boyvachchalar, bekorchi xo'ja, be born with a penny (a silvers poon) in one's mouth, be born in/ to the purple, cradled in (the) purple - oliyjanob va badavlat oilada tug'ilgan, be lapped in one's mother's smock - boylikda tug'ilmoq.

**Xulosa va takliflar.** Ingliz va o'zbek tillarida "boylik" konseptini simmetrik va asimmetrik nuqtai-nazaridan chog'ishtirish ba'zi xususiyatlarni qayd etish imkonini beradi. Avvalo, ingliz frazeologik birliklarida protsessual lingvistik ma'no ko'proq narsani o'z ichiga oladi, o'zbek tiliga qaraganda batafsil va muhim o'rinni egallaydi. Biz buni o'zbek tiliga nisbatan ingliz tilida boylikka nisbatan simmetrik munosabat deb bilamiz. Bir tomondan, bu inglizlar dunyosida, shu jumladan o'zini tutish axloqining ta'siri bilan bog'liq holda boylikka simmetriyani pragmatik yondashuvining aksidir. Boshqa tomondan, o'zbek mentalitetida boylik taqdir bilan bog'liq, eng yuqoridan oldindan belgilab qo'yilgan asimmetrik tushunchadir. Ingliz mentalitetida esa bu ma'no ko'proq simmetriyadir. Ikkinchidan, taqdir tomonidan oldindan simmetrik belgilanmagan, boylikka nisbatan oddiyroq munosabat, ingliz tilida boylikning ijtimoiy jihatlari ancha nominatsiyalanganligi bilan to'liq mos keladi, ijtimoiy guruhlar, ularning siyosiy va iqtisodiy xususiyatlari berilgan; turli xil, shu jumladan noqonuniy yo'llari va boylikka erishish usullari uchun maxsus asimmetrik ma'nodagi nom oladi.

Shunday qilib, o'zbek va ingliz tillarida "rich-boylik" konseptiga oid frazeologik birliklarni simmetrik va asimmetrik munosabatda qiyoslash bitta xarakterli xususiyatni ko'rsatadi: ingliz tilidagi leksemalarining struktur birikuvchanligi o'zbek tilinikiga qaraganda ancha rang-barang bo'lsada, leksik birliklarining aspektlarda manzarasi aksincha.

#### ADABIYOTLAR

1. Kunin A.V. Anglo-Russkiy frazeologicheskiy slovar. 3-izd., - Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1967. - S. 234-245.
2. Сафаров Ш. Семантика. Т., 2013. -340 б.
3. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони).- филол. фанлари док. автореферат-Т.1999.
4. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатхини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш.- Т.Маънавият.2004.
5. Hornby A.S. OXFORD Advanced Learner's dictionary. Sixth edition/ Edited by Sally Wehmeier. OXFORD UNIVERSITY PRESS, 2000. P. -581-582-583.
6. Webster's third international dictionary of the English language. Könnemann.1993.
7. Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления: из научного наследия / С.Д. Кацнельсон. М.: Яз. славянской культуры, 2001. 864с.
8. Shokirov Sh.Turli tizimli tillar persepsiyasida simmetrik va asimmetrik munosabat. - F.f.dok. aftoref - T. 2026.